



Gender tolerantlikni rivojlantirishda etnopedagogik metodlarning ilmiy-pedagogik ahamiyati

Xayrullayeva Nigora Jamolxonovna –
KIUT Namangan filiali Maktabgacha va
boshlang'ich ta'lim metodikasi o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada gender tolerantlikni rivojlantirish texnologiyasining ilmiy-metodik ahamiyati, jumladan, etnopedagogik yondashuv asosida talabalarda gender tolerantlikni rivojlantirish metodologiyasi, usullari hamda bu jarayonda amalga oshiriladigan tarbiyaviy texnologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu jarayonda milliy an'analar, urf-odatlar, tarixiy tajribalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unlashtirilgan holda talqin etiladi.

Kalit so'zlar: gender, gender tenglik, gender tolerantlik, etnopedagogik metodlar, milliy an'ana, urf-odatlar, rolli o'yinlar, pedagogik yondashuv, empatiya, oila va tarbiya.

Научно-педагогическое значение этнопедагогических методов в развитии гендерной толерантности

Аннотация. В данной статье анализируются научно-методическое значение технологии развития гендерной толерантности, в частности методология, методы и воспитательные технологии, применяемые в процессе формирования гендерной толерантности у студентов на основе этнопедагогического подхода. Кроме того, рассматривается интерпретация данного процесса в контексте интеграции национальных традиций, обычаев, исторического опыта и современных педагогических подходов.

Ключевые слова: гендер, гендерное равенство, гендерная толерантность, этнопедагогические методы, национальная традиция, обычаи, ролевые игры, педагогический подход, эмпатия, семья и воспитание

Scientific and pedagogical significance of ethnopedagogical methods in developing gender tolerance

Annotation. *This article analyzes the scientific and methodological significance of the technology for developing gender tolerance, including the methodology, methods, and educational technologies employed in fostering gender tolerance among students on the basis of an ethnopedagogical approach. In addition, the process is interpreted through the integration of national traditions, customs, historical experiences, and modern pedagogical approaches.*

Keywords: *gender, gender equality, gender tolerance, ethnopedagogical methods, national tradition, custom, traditions, role-playing games, role plays, pedagogical approach, empathy, family and upbringing.*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – talabalarda barcha jabhalarda teng imkoniyatlar, hamkorlik, o'zaro hurmat va toqatlilikni rivojlantirishdir. Jumladan, gender tolerantlikni rivojlantirish pedagogik-tarbiyaviy jarayonning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur dissertatsiya bobida gender tolerantlikni rivojlantirish texnologiyasining ilmiy-metodik ahamiyati, jumladan, etnopedagogik yondashuv asosida talabalarda gender tolerantlikni rivojlantirish metodologiyasi, usullari hamda bu jarayonda amalga oshiriladigan tarbiyaviy texnologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, bu jarayonda milliy an'analar, urf-odatlar, tarixiy tajribalar hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar uyg'unlashtirilgan holda talqin etiladi. Bugungi kunda gender tolerantlikni rivojlantirishda etnopedagogik yondashuv maxsus e'tiborga sazovor. Chunki etnopedagogika jamiyatdagi turli madaniy, etnik, mental xususiyatlarni inobatga olish orqali tarbiya jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu yondashuv, avvalo, talabalarda ular egasi bo'lgan milliy qadriyatlar, tarixiy an'analar va etnomadaniy meros bilan faxrlanish tuyg'usini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, etnopedagogik yondashuv har bir insonga u qaysi jinsga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, milliy qadriyatlarida mavjud bag'rikenglik g'oyalari orqali bir-biriga nisbatan hurmat, bag'rikenglik va tenglik ruhini uyg'otadi. Natijada, talabalar jamiyatdagi roli, jinslari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bir-birini tushunish, qadrlash va muvofiqlashgan tartibda faoliyat yuritish malakasiga ega bo'ladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gender tolerantlik tushunchasi jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlar, imkoniyatlar tengligi, shu bilan birga sosial hamda madaniy jarayonlarda ularni barobar qatnashini ta'minlash masalasini qamrab oladi. Tolerantlik esa turli madaniyatlar, an'analar va gender rollariga nisbatan hurmat bilan yondashuvni nazarda tutadi. Mazkur ikki tushunchaning birlashuvi jamiyatda ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarni nafaqat huquqiy, balki ma'naviy, axloqiy, psixologik jihatdan ham uyg'unlashtirish demakdir. Etnopedagogika esa milliy an'analar, urf-odatlar, xalq badiiy ijodi, milliy meros, oilaviy qadriyatlar kabi omillarning tarbiya jarayonida tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganuvchi fan sifatida talqin etiladi. O'z navbatida, etnopedagogikaning maqsadi – kamol topayotgan avlodda milliy xudbinilikni emas, balki o'z tarixiy, madaniy ildizlarini, qadriyatlarini yaxshi anglagan holda, boshqalarni ham tushunishi va qadrlashi uchun zarur bo'lgan hislatlarni rivojlantirishdir. Ana shunday jarayonda gender tolerantlikni rivojlantirish uchun

etnopedagogik metodlardan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Chunki milliy meros, an'analar hamda marosimlar taptishida ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlar, ular o'rtasidagi huquq va majburiyatlar, ehtirom hamda e'tibor ko'rsatish, mustaqillik hissini uyg'otish, bir-biriga nisbatan hurmat bilan yondashish kabi ko'plab muhim jihatlar mujassamdir. Masalan, o'zbek xalqining "Kelin salom", "Sumalak bayrami", "Beshik to'yi" kabi marosimlarida ayol kishi, ona obrazi, erkak kishi, ota obrazi, ularning jamiyatdagi o'rni, oiladagi roli kabi tushunchalar simvolik tarzda namoyon bo'ladi. Bunday meros o'zida epik, lirik, dastlabki tarbiyaviy ko'rinishlar, milliy qadriyatlar majmuini ifoda etar ekan, bu jarayonda gender rollarini teng baholash, ularni birdek qadrlash ko'zda tutiladi. Biroq zamonaviy jamiyatda ayrim holatlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi nomutanosibliklar, tengsizliklar, stereotiplarning mavjudligi ma'lum. Endigi vazifa ana shunday noqulay holatlarni bartaraf etish uchun maqsadli, tizimli tarbiyaviy choralarni ishlab chiqishdir. Shu jihatdan qaraganda, etnopedagogik metodlar orqali gender tolerantlikni rivojlantirish – eng muhim pedagogik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Zero, bu yo'nalishda xilma-xil tarbiya usullari, milliy qadriyatlar, etnomadaniy marosimlar, udumlar, folklor asarlari, maqollar, matallar, tushuncha va qarashlar bir butun tizim sifatida ishga solinsa, o'sib kelayotgan avlodda gender tolerantlikni rivojlantirish mumkin. Shu munosabat bilan, bir qancha ilmiy adabiyotlar, xususan, Dilmurod Abdug'ani o'g'lining "Yoshlar ta'limida gender yondashuv va zamonaviy tendensiyalar" nomli kitobida ma'lum qilinishicha, etnopedagogik manbalarda ayollar va erkaklarning ustunlik yoki pastlik jihatlarini emas, balki ularning o'zaro bir-birini to'ldiruvchi ekanligini ko'rsatuvchi ko'plab holatlar aks etgan. Muallifning ta'kidlashicha, turli xalq qo'shiqlari, epik asarlar, marosimlarda birgalikdagi mehnat, bir-birini qo'llab-quvvatlash, oilada farzandlar tarbiyasida birdek mas'ullik kabi holatlar mahalliy an'analarda mustahkam o'rin olgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, etnopedagogik metodlar orqali gender tolerantlikni rivojlantirish bir necha asosiy yo'nalishda ko'zda tutiladi. Birinchisi, milliy madaniyatlarda ayollar va erkaklar o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarning tarixiy ildizlarini o'rganishdir. Masalan, X.Nurbayeva "Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslari" nomli fundamental tadqiqotida ta'kidlaganidek, xalq og'zaki ijodi orqali oilaning muqaddas bo'lishi, erkakni ota, ayolni ona sifatida ulug'lash, ularni bir-birini taqdirlash xususiyatlari yoshlar ongida barvaqt shakllanishi mumkin. Ikkinchi yo'nalish – etnopedagogika vositasida gender tolerantlikka oid tushuncha va qarashlarning shakllanishi. Uchinchi yo'nalish – etnopedagogik marosimlar, milliy an'analardan ko'proq amalda foydalanish, ularni zamonaviy ta'lim-tarbiya jarayonida sistemali joriy etish. Mazkur fikrlar X. O. Karimov tomonidan yozilgan "Tarbiyada sharqona pedagogik moxiyati" asarida ham qayd etiladi. Muallif ta'kidlashicha, an'analimizda oila kattalari har doim oilada me'yorni, tenglikni, hamjihatlikni ta'minlashda namuna ko'rsatib kelgan, bunda gender rollarining tasdiqlanishi bir-birini to'ldiruvchi jarayon sifatida tushuniladi.

Hozirgi davrda umumiy ta'lim maktablari, oliy ta'lim muassasalari, kasb-hunar kollejlari singari o'quv muassasalarida gender tolerantlikni rivojlantirish maqsadida alohida ta'lim dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu borada etiborli tomoni shuki, uchebnik yoki darsliklar bilan cheklanmasdan, milliy madaniyatimizga xos bo'lgan asarlar, badiiy matnlar, maqollar, topishmoqlar, ertaklar ham tarbiya jarayoniga jalb qilinsin. Chunki aynan ularda ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlar, hayotda yuzaga keladigan turli rol taqsimotlari, bu jarayondagi tenglik va huquqiy mushtaraklik masalalari aniq-ravshan aks etgan. Masalan, Sh.K. Gulyamova "Gender tushunchasi va uning lingvistikada tutgan o'rni" nomli asarida ko'rsatilganidek, ko'plab xalq ertaklarida ayollar dono, sabrli, irodali, mard bo'lib tasvirlanadi, erkak esa kuchli, g'ayratli, biroq aksar hollarda oilada ayol bilan birgalikda qaror qabul qiladi. Bu esa erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarning o'zaro hurmatga asoslangani bilan birgalikda, teng masalalar bo'yicha birgalikda javobgarlikni bo'lishib olish kerakligini ham anglatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Gender tolerantlikni rivojlantirishda etnopedagogik metodlardan foydalanish uchun maxsus ishlab chiqilgan yangi metodika haqida to'xtalib o'tsak. Mazkur metodika maqsadi yoshlar (bolalar, o'smirlar, talaba-yoshlar) ongida gender rollarini haqqoniy tushunish, ular niqobi ortidagi stereotiplarni bartaraf etish, milliy an'ana va qadriyatlarimizdagi eng ilg'or jihatlar orqali tolerantlikni rivojlantirishdir. Bu metodikani ishlab chiqishda bir necha asosiy tamoyillarga suyanilishi zarur: milliy-an'anaviy tarbiya, jamiyat talablari, tarbiyalanuvchilar ehtiyojlari, ilmiy-amaliy yondashuv, innovation pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlik. Ana shu tamoyillar birgalikda amalga oshirilganda, yoshlarda tenglik, birdamlik, bir-birini qo'llab-quvvatlash, bir-birining qadrini bilish kabi tushuncha va ko'nikmalar mustahkamlanadi. Shu munosabat bilan, maqsadli treninglar, master-klasslar, etnopedagogik o'yinlar, saxnalashtirilgan chiqishlar, turli ko'rgazmali qurollardan foydalangan holda dars berish kabi usullardan foydalanish mumkin. Masalan, metodika doirasida shunday bir mashg'ulotni tashkil qilish mumkin: "Oila an'analarida birdamlik" deb nomlangan bevosita tarbiyaviy jarayonda qatnashuvchi talaba-yoshlar guruhlariga bo'linishadi. Ushbu guruhlar qatorida har bir guruh muayyan marosim yoki an'anani saxnalashtirib beradi. Masalan, birinchi guruh "Kelin salom" ni, ikkinchi guruh "Beshik to'yi" ni, uchinchi guruh "Sumalak sayli" ni sahnalashtirgan holda, ayollar va erkaklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, ularning bir-biriga bo'lgan ehtiromi, qo'llab-quvvatlashi, birgalikda qaror qabul qilish amaliyotini namoyon etishadi. Shu vaqtda mutaxassis pedagog yoki oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi talabalar bilan yakunlovchi muhokamani o'tkazadi. Maqsad – ular ongida "bizda shunday an'analar bo'lgan ekan, ayol va erkak bir-biridan ustun yoki past emas, aksincha, ular bir-birini rag'batlantiruvchi, to'ldiruvchi tushunchalar" degan fikrni mustahkamlash.

Yuqorida tilga olingan metodikani amalga oshirish bo'yicha ko'rsatma ham yaxlit tizimda bo'lishi zarur.

Birinchi qadam – oliy ta'lim, maktab yoki kollej miqyosida mas'ul guruh tuzish. Bu guruh tarkibiga pedagoglar, psixologlar, mahalliy hokimiyat yoki jamoat tashkilotlari vakillari, shuningdek, qiziquvchi talabalarni jalb qilish mumkin.

Ikkinchi qadam – dasturni tayyorlash. Dasturda mashg'ulotlar mavzusi, ularni o'tkazish she'li, maqsad va vazifalar, kutilayotgan natija aniq ko'rsatilishi kerak.

Uchinchi qadam – materiallar tanlash: etnopedagogik manbalar, xalq og'zaki ijodi, milliy bayramlar, marosimlar, badiiy asarlar, tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlardan zarur iqtiboslar jamlash.

To'rtinchi qadam – amaliy jarayonni tashkil etish, ya'ni treninglar, amaliy mashg'ulotlar, taxliliy munozaralar, saxnalashtirilgan chiqishlar, birgalikda badiiy asarlar mutolaasi, maqollar muhokamasi, turli yangi media-texnologiyalardan foydalanib videoroliklar tayyorlash.

Beshinchi qadam – natijalarni baholash va mustahkamlash. Masalan, ma'lum bir muddatdan so'ng talabalar bilan suhbat, so'rovnomalar o'tkazilib, ularning gender tolerantlik masalasiga munosabatida qanday o'zgarishlar kuzatilgani aniqlanadi.

Agar talabalarda stereotip fikrlar kamaygani, ayollar va erkaklarga nisbatan birxil ko'nikma shakllanganligi aniqlansa, metodikaning samaradorligi o'z isbotini topgan bo'ladi. Bu ko'rsatmalar, avvalo, tizimlilik, mantiqiy ketma-ketlik va muntazamlilik prinsiplariga asoslanadi. Bu haqda M.M.Tilavova "Ta'lim jarayonida gender tenglik va farqlarni hisobga olishning pedagogik va psixologik imkoniyatlari" risolasida ko'rsatib o'tilganidek, gender masalasini hal qilish faqat qonunlar orqali emas, balki chuqur ilmiy asoslangan tarbiya metodlari orqali bajarilganda ko'proq samara beradi.

Dasturni tuzish masalasi ham xuddi shunday eng muhim jarayonlardan biridir. Taqdim etilayotgan dastur shartli ravishda "Etnogender" deb nomlanadi. Bu dastur quyidagicha

mantiqiy qismlarga bo'lingan holda tayyorlanadi, biroq ular sanab o'tilmasdan, bir-biri bilan uzviy bog'liq holda tushuntiriladi.

Dastlabki qismda dasturning maqsadi tushuntiriladi: gender tolerantlikni rivojlantirish, milliy qadriyatlar, etnomadaniy an'analar orqali teq huquqlilik va o'zaro hurmatni kuchaytirishni ko'zda tutadi. Keyingi qismda dastur asosida amalga oshiriladigan mashg'ulotlar mohiyati ochib beriladi. Masalan, "Maqollar talqini" mashg'uloti doirasida "Bir bola – bosh, ikkita bola – tosh, uchta bola – qosh, to'rtta bola – gultoj" kabi maqollar faqat farzandlar soniga ishora qilmasdan, balki har bir farzandni, u qiz yoki o'g'il bo'lishidan qat'iy nazar, qadrlash g'oyasini bildirishi aytilgan. Shunga muvofiq, o'g'il yoki qiz farzandni aslo farqlash yoki kamsitish mumkin emasligi, aksincha, barcha farzandlar oila baxti, chiroyli qurboni ekanligi tushuntiriladi. Yana bir mashg'ulot sifatida "Madaniy marosimlar" bo'lib, bu yerda talabalar milliy bayramlar, urf-odatlar haqida fikr almashadilar va ularda ayollar roli, erkaklar roli, ularning o'zaro ko'maklashuvi va birdamlikda ishtirok etish tasavvurlari keng muhokama qilinadi. Shu tariqa dastur davomida muntazam tarzda amaliy vazifalar, testlar, fikr almashish sessiyalari, kichik guruh loyihalari o'tkazib boriladi. Dasturda, shuningdek, badiiy asarlar mutolaasiga ham katta e'tibor qaratiladi. Masalan, Alisher Navoiy asarlaridagi ideal ayollar obrazi, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, Uyg'un kabi adiblar asarlarida oila munosabatlari, ayollar sha'ni, qadr-qimmatini ulug'lash kabi jihatlar talaba-yoshlar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Zero, ushbu asarlarda ham o'ziga xos etnopedagogik fikrlar, gender tenglik niyatidagi qarashlar ko'plab uchraydi. Bu kabi yondashuvlar U.S.Raximova "O'zbek-ingliz adabiyotida ayol siymosining qiyosiy tahlili" asarida ham yoritilgan.

Albatta, dasturni amalga oshirish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim. Masalan, maxsus videoroliklar, elektron slaydlar, taqdimotlar, internet manbalaridagi tarixiy fotosuratlar, milliy marosimlarga oid videoroliklar yoki hujjatli filmlardan foydalanish mumkindir. Shuningdek, telegram botlari yoki mobil ilovalar orqali mazkur maqsadga bag'ishlangan o'yinlar, viktorinalar, kompaniyalar tashkil etish mumkin. Bu haqda S.R.Zohidova "Bo'lajak pedagoglarni kasbiy ijtimoiylashtirish jarayonlarini takomillashtirish" maqolasi da ham shunga o'xshash fikrlar ilgari surilgan. Muallif ta'kidlashicha, tarbiya jarayonida rang-barang texnik imkoniyatlardan foydalanilishi talabalar ongida ma'lum bir mavzuni yaxshiroq singdirish, qiziqishni oshirish, ularda interaktiv fikrlash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Metodikani aniq, samarali tasavvur qilish uchun bir-ikki amaliy misolga e'tibor qaratilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, dastur doirasida "Erkak va ayol: maqollar talqini" nomli mashg'ulot o'tkaziladi. Bu mashg'ulotda talabalarga ajratilgan vaqt ichida turli maqollar, topishmoqlar yoki uzoq yillar davomida tilimizda qo'llanib kelayotgan iboralar taklif etiladi. Ulardan biri shunday bo'lishi mumkin: "Ayol zotini avayla, u – sening baxting eshigi". Bu iborani talaba-yoshlar munozara yo'li bilan sharhlashlari lozim bo'ladi: bu yerda ayol zoti nima uchun "baxt eshigi" deb atalgan? Oilada ayol zotining ahamiyati nimada? Nega bu ibora paytida erkakka ham biror eslatma bor? Mashg'ulot oxirida shu narsa aniqlanadiki, iborada ayol kishini ulug'lash, uni qadrlash, biroq shu bilan birga, oilada teng rol o'ynaydigan erkakni ham mas'uliyatga chaqirish, ya'ni "ona baxti – bola baxti, ayol baxti – erkak baxti" degan ma'no bor. Shunday qilib, bu bir oddiy iborada yoshlar ongida ayollarga nisbatan hurmat, e'tibor, ularni avaylash, qadrlash, erkakni ham mas'uliyatdan chetlashtirmaslik kabi tushunchalar hamoxangligicha shakllanadi. Shu tariqa turli etnopedagogik iboralar, maqollar, topishmoqlar, qo'shiqlar, lafzlar orqali gender tolerantlik tarbiyasi maromiga yetkaziladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Metodikani hayotga tatbiq etishda e'tibor qaratish kerak bo'lgan yana bir masala – tarbiya jarayonini uzluksizligidir. Ya'ni, gender tolerantlikni rivojlantirish bir martalik

mashg'ulot yoki bir seminar bilan cheklanmaydi, bu tobora rivojlanib boradigan jarayon. Masalan, maktabgacha ta'lim muassasalarida qizlar va o'g'illarning xuddi bitta jamoada teng huquqli qatnashishini ta'minlash, baquvvat jismoniy mashqlar yoki aqliy mashqlar birdek ayol yoki erkak uchun ahamiyatli ekanini anglatish, uy vazifalarida ham birday mas'ullikka chaqirish kabi ko'nikmalar kichik yoshdanoq berilishi lozim. Maktab davrida esa ana shu ko'nikmalar chuqurlashtiriladi, gender rollari keng targ'ibot qilinadi, yetakchi mashg'ulotlar o'tkaziladi. Oliy ta'limda esa ilmiy asoslantirish, nazariy tahlillar, falsafiy yondashuvlar, psixologik mashg'ulotlar, amaliy loyihalar bilan birgalikda puxta mustahkamlanadi. Natijada uzluksiz maktabgacha ta'limdan oliy ta'limgacha bo'lgan davrda etnopedagogik merosimiz yordamida gender tolerantlikka erishiladi. Bunday tizimli yondashuvni tashkil etish uchun esa albatta tegishli normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, ta'lim standartlariga kiritilgan maqsadli modullar zarur. Shuni ta'kidlash kerakki, ayni paytda jahon tajribasida ham gender tolerantlikni rivojlantirish bo'yicha ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Biroq bizda o'ziga xos boy etnopedagogik meros mavjudligi bois, ana shu xorijiy tajriba milliy qadriyatlarimiz bilan uyg'unlashtirilishi shart. Bu jarayonda "birdek taqlid qilish" emas, balki saralab olish prinsipi asos qilinadi. Bu haqda L.Saidova "Jahon gender tarixiga bir nazar va O'zbekistonda gender siyosatining huquqiy asoslari" asarida ham qayta-qayta ta'kidlanadi. Muallif fikricha, har bir mamlakatda, xususan, bizda gender masalasida milliy an'ana va qadriyatlar muhim ahamiyat kasb etadi, ularni chetlab o'tib bo'lmaydi. Bugungi globallashtirish zamonida gender tenglikni ta'minlash inson huquqlari va jamiyat barqarorligi yo'lidagi asosiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jinslar o'rtasida notenglikni bartaraf etish va tenglikni mustahkamlash uchun turli pedagogik texnologiyalar, usullar, yondashuvlar zarur. Ular ichida etnopedagogik yondashuv tarixiy, madaniy, milliy qadriyatlarning o'zaro uyg'unligi bilan ajralib turadi.

Mazkur yondashuv har bir talaba yosh umuman jamiyat hayotida o'z o'rnini topishi, jinslar o'rtasida teng sharoitlaridan bahramand bo'lishi, bir-biriga nisbatan bag'rikeng munosabatda bo'lishi uchun kuchli ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, etnopedagogik yondashuv asosida ishlab chiqilgan model, yangi metodika, dastur va ko'rsatmalar talaba yoshlar tarbiyasi sifati ham samarasini yanada oshirishi shubhasizdir

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, gender tolerantlikni rivojlantirishda etnopedagogik metodlardan foydalanish – bu nafaqat madaniy, tarixi ildizlarimizga asoslangan holda, balki zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashgan pedagogik jarayondir. Ushbu jarayonda milliy marosimlar, an'ana va udumlar, maqollar, ertaklar, tarixiy manbalar, badiiy asarlar barchasi birgalikda, yaxlit tizim sifatida ishga solinadi. Shundagina ayollar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarda ekvivalentlik, o'zaro hurmat, birgalikda qaror qabul qilish, dunyoqarash cheklanmaganligi, fikrni erkin bildirish kabi tushunchalar tarbiya jarayonida mustahkam asos topadi. Eng muhimi, bu metodik jarayonda yoshlar ongida stereotiplarga qarshi immunitet shakllanadi: ayol yoki erkakni bir-biridan ustun yoki kam ko'rsatadigan tasavvurlar o'rniga birdamlik, hamjihatlik, teng huquqlilik tamoyillariga asoslangan tarbiyaiviy qadriyatlar ustuvor bo'ladi. Bu borada pedagoglar, psixologlar, ota-onalar, mahalla faollari, ilmiy doiralar hamkorligi muhim o'rin tutadi. Ushbu paragrafda taklif etilgan yangicha metodika va uni amalga oshirish dasturi, shuningdek, misollar asosidagi ko'rsatmalar to'liq hayotga joriy etilsa, ta'lim muassasalarida gender tolerantlikni rivojlantirishda yuqori samaralarga erishish mumkin. Zero, gender tolerantlik – demokratik, har bir kishi huquqi hurmat qilinadigan jamiyat barpo etish rohidida muhim shart hisoblanadi. Etnopedagogik merosimiz esa bu yo'lda beqiyos xazina bo'lib, undan oqilona foydalanish, zamonaviy innovatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish, ilmiy-amaliy

yondashuv orqali tizimli ravishda tatbiq etish barkamol avlod tarbiyasida yangi bosqichni belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Dilmurod Abdug'ani o'g'li Yoshlar ta'limida gender yondashuv va zamonaviy tendensiyalar, American journal of education and learning –T. 3.–№. 1.–С. 255-261.
2. X.Nurbayeva Talabalarda gender madaniyatni rivojlantirishning etnopedagogik asoslari, News of UzMU journal. –T. 1. – №. 1.1. 1. – С. 173-176.
3. К.С.Ниязов, Х.О.Каримов Тарбияда шарқона педагогик мохияти: Yangi o'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlar o'rni va rivojlanish omillari, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari.–2024.–Т.3.–№. 2. – С. 281-285.
4. Ш.К.Гулямова Гендер тушунчаси ва унинг лингвистикада тутган ўрни понятие «гендер» и его место в лингвистике the concept of gender and its place in linguistics.
5. М.М.Тилавова Таълим жараёнида гендер тенглик ва фарқларни ҳисобга олишнинг педагогик ва психологик имкониятлари //Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – 2020. – №. 1.
6. И.Р.Рахимова, У.С.Рахимова Ўзбек-инглиз адабиётида аёл сиймосининг қиёсий таҳлили //Экономика и социум.– №. 10-2 (125). – С. 856-864.
7. С.Р.Зоҳидова Бўлажак педагогларни касбий ижтимоийлаштириш жараёнларини такомиллаштириш //Novateur Publications. – №. 1. – С. 1-57.
8. Л.Саидова Жаҳон гендер тарихига бир назар ва Ўзбекистонда гендер сиёсатининг ҳукукий асослари //Юрист ахборотномаси. –Т. 1. – №. 2. – С. 110-118.